

INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISH NAZARIYASI

Abdixalilov Abdig'oppar Abdisattor o'g'li

Bank Moliya akademiyasi

Loyiha boshqaruvi yo'nalishi tinglovchisi (magistranti)

Annotatsiya: Bugungi, iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanib borayotgan kunda, investitsion loyihalarini joriy qilish va uni amalga oshirish davomida yuzaga keluvchi turli xil xatarlar (risklar) baholash, loyiha boshqaruvida muhim omil bo'lib, bu o'ziga xos bilim va malakani talab qiladi. Investitsion loyihalarda, risklarni boshqarishning samarali tizimi boshqarishning eng muhim vositalari bo'lib, ularni ishlab chiqish va amalga oshirish loyiha boshqaruvi bo'yicha yakuniy natijani belgilovchi eng muhim jihat hisoblanadi. Ushbu maqolada loyihalarini amalga oshirish davrida risklarni baholashning turli usullari, nazariy asoslari va kuzatilish ehtimoli yuqori bo'lgan risklarni minimallashtirish mexanizmlari o'r ganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Risklarni boshqarish, risklarni tahlil qilish, risk omili, potensial hodisalar, ehtimollik, risk oqibati.

KIRISH.

Jahonda xalqaro sanoat loyihalarini moliyalashtirish, yangi samarali loyihalarga investitsiya kiritish, o'zaro yangi loyihaviy hamkorliklarni amalga oshirishda umumiy global risklarning salbiy ta'sirini baholash va ularni oldini olishga katta e'tibor qaratilmoqda. Bu o'z navbatida investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirilishida risklarni tahlil qilish, baholash va tizimli boshqarishni takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlarni joriy qilish va bu borada ko'plab ilmiy izlanishlarni olib borishni talab etmoqda. Risk tahlilining maqsadi investorga investitsiya loyihasini amalga oshirishda qatnashishning maqsadga muvofiqligi to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish va mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlardan himoyalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim qilishdan iborat.

ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiyotga oid adabiylarda loyiha boshqaruvida risk (xatar) tushunchasi turli iqtisodchi olimlar tomonidan turlicha ta'riflanadi.

Risk - bu loyiha maqsadlariga noaniqlikning ta'siri. Bunda ta'sir loyiha kutilmasidan chetga chiqishdir. Bu ijobjiy, salbiy yoki ikkalasi ham bo'lishi mumkin va imkoniyat va tahdidlarni hal qilishi, yaratish va uning natijasi bo'lishi mumkin. Bunda maqsad turli jihatlar va toifalarga ta'luqli bo'lib, turli darajalarda qo'llanilishi mumkin. Risk odatda risk omillari (manbaalari), potensial hodisalar, ularning oqibatlari va ehtimoli ko'rinishida ifodalanadi [1].

Risk - bu salbiy hodisalar va ularning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlariga duchor bo'lish xavfi darajasi.

Loyiha risklari - bu loyihani amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan zarar bilan bog'liq noqulay vaziyatlar va oqibatlar ehtimoli [2].

Loyiha riski - bu noaniq hodisa bo'lib, agar u sodir bo'lsa, loyiha maqsadlaridan kamida bittasiga ijobjiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi (Masalan, jadval, xarajat, hajm yoki sifat).

Loyiha riskining yuqoridagi ta'rifini tahlil qilaylik.

1. Ushbu ta'rifda riskning talqini nafaqat salbiy, balki ijobjiy tomoni ham o'z ichiga oladi. Gap shundaki ingliz tilida risk "imkoniyat" deb tushuniladi.

2. Noaniq hodisa - bu qandaydir ehtimollik bilan sodir bo'lishi mumkin bo'lgan hodisa. Agar voqeа sodir bo'lishini aniq bilsak, unda bu risk emas. Xuddi shunday, agar biz voqeа sodir bo'lmasligini aniq bilsak, bu ham risk emas.

3. Loyiha riski loyiha maqsadlariga ta'sir qiladi. Agar biron bir hodisa (masalan, boshqa qit'adagi zilzila) loyiha maqsadlariga ta'sir qilmasa, unda bu risk emas [3].

Risk omili va sabablariga qarab, investitsion loyihalar risklarini quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- iqtisodiy (milliy va jahon iqtisodiyoti rivojlanishining umumiy tendentsiyalari bilan bog'liq);

- texnologik (asosan sanoat majmularidagi investitsiya loyihalari uchun xarakterlidir, texnik jihozlarning ishonchiligi, uni modernizatsiya qilish sur'atlari, avtomatlashtirish darajasi va boshqalar bilan bog'liq);

- ijtimoiy (turli xil ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ularning tabiatni ko'proq darajada inson omili va kamroq darajada davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirish yo'naliishlari bilan belgilanadi);

- siyosiy (davlat rivojlanishining umumiy siyosiy yo'naliishidagi o'zgarishlar, investitsiya loyihasini amalga oshirishga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hukumat qarorlarini qabul qilish bilan bog'liq);

- huquqiy (siyosiy risklar bilan chambarchas bog'liq, lekin ulardan faqat me'yoriy tabiatni bilan farqlanadi - investitsiya loyihalarini amalga oshirishga asosiy foiz stavkasining o'zgarishi, bojaxona to'lovlari miqdori, turli xil litsenziyalar berish tartibi kabi huquqiy jihatlar ta'sir ko'rsatadi. faoliyat turlari va boshqalar);

- moddiy va moliyaviy (yetkazib berilayotgan asbob-uskunalar sifati, mablag'larning o'z vaqtida olinishi va boshqalar bilan bog'liq).

Risklarni boshqarish - bu istalmagan hodisalarni oldindan bilish va ulardan qochishni rejalashtirish uchun ongli harakatlar orqali faoliyatning zararli ta'sirini kamaytirishga qaratilgan, kutilmagan xavflarni aniqlash, baholash va ularga javob berish jarayoni. Risklarni boshqarishni xavfni o'lchash yoki baholash jarayoni, keyin esa risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish jarayoni deb hisoblash mumkin. Risklarni boshqarishning asosiy maqsadi – ularni oldini olish va pasaytirish hisoblanadi.

Risklarni boshqarish quyidagi asosiy bosqichlarga bo'linadi:

- Risk omilini aniqlash;
- Risk omilini tahlil qilish va baholash;

- Risklarni pasaytirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish yoki risk oqibatlarini bartaraf etish;
- Risklarni oldini olish va nazorat qilish;
- Risklarni boshqarish usullarini tanlash va qo'llash;
- Risk holatlari va ularni oqibatlari haqida ma'lumot toplash va kelajakka tavsiyalar tuzish;

Umuman olganda, qo'llaniladigan strategiyalar riskni boshqa tarmoqlarga o'tkazish, riskdan qochish, riskning salbiy oqibatlarini kamaytirish va ma'lum bir riskning bir qismini yoki barchasini qabul qilishni o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, agar risklarni boshqarish potentsial muammolarni aniqlash va yechimlarni topish uchun muntazam ravishda amalga oshirilsa, u boshqa jarayonlarni, jumladan, tashkil etish, rejalashtirish, byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilishni osonlashtiradi.

Xulosa

Investitsion harakterdagi sanoat loyihalarida risklarni bosqarish bo'yicha o'rghanish va izlanishlar asosida quyidagi xulosalar shakllangan:

Iqtisoddagi risk omilini aniqlash deganda risk sababini, ya'ni loyiha tasir qila oladigan voqeя yoki vaziyatlarni aniqlash tushuniladi hamda riskni boshqarishdan maqsad eng avvalo riskning oldini olishdir. Qaror qabul qilayotgan shaxs yuz berishi mumkin bo'lgan noxush voqealarning oqibatini yaqqol tasavvur etishi kerak. Bu uning keyingi harakatlarini belgilab beradi. Risklarni tahlil qilish orqali risk oqibatida kutilishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar hajmi aniqlanadi, so'ngra, ko'rib chiqilayotgan loyiada qatnashish bo'yicha ijobiy qaror qabul qilingan hollarda riskni yo'qotish yoki pasaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Har bir loyiha boshqaruв xodimlari o'z faoliyati bo'yicha o'z ishlarini joriy qilishlari uchun mavjud risklarni oldini olish taktikasi va strategiyasini ishlab chiqishi kerak. Amaliyotda investitsiya risklarini baholashga katta ahamiyat beriladi, chunki risklarni tahlil qilish va baholash ba'zan juda ko'p vaqt, malaka va xarajat talab qiluvchi bosqich hisoblanadi. Lekin risklarni tahlil qilish va baholash to'g'ri va puxta amalga oshirilsa, keyinchalik investor va loyihaning boshqa qatnashchilariga kutilmagan xarajatlarning paydo bo'lishini va vaqtning behuda sarflanishini oldini oladi, paydo bo'lgan muammolarni qayta ko'rib, yechim izlashni talab etmaydi, aksincha, ko'zlangan maqsadga tez erishishga sabab bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. ISO 31000 :2018 Risk management - Guidelines
2. Л. Н. Боронина.3. В. Сенук Основы управления проектами
3. В. Е. Шкурко УПРАВЛЕНИЕ РИСКАМИ ПРОЕКТОВ
4. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali
5. Xujamkulov D.Yu., Ismailov D.A. Investitsiya loyihalarini boshqarish. O'quv qo'llanma 2019.